
Toshloq tumanida aholi bandligini ta'minlash, hududlarni obodonlashtirish, fuqarolarni tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha tizimli ishlarni yanada jonlantirish yuzasidan ma'sullarga ko'satmalar berildi.

Toshloq tumani mahallalar, ichki yo'llar, ijtimoiy soha ob'yektlari, ziyoratgohlar, qabristonlarni obodonlashtirish, tumandagi noqonuniy qurilmalarni bartaraf etish, aholi va tadbirkorlar o'rtasida yashil energiya manbalarini ko'paytirish bo'yicha tanqidiy yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda Respublika ishchi guruhi vakillari, sektorlar rahbarlari, prokuratura, ichki ishlar idoralari vakillari, kommunal soha korxonalari hamda tijorat banklari xodimlari ishtirok etdi.

Tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev tomonidan aholini tadbirkorlikka jalb qilish, fuqarolarni ish bilan ta'minlash, o'zini-o'zi band qilishga ko'maklashish, noqonuniy qurilmalarni bartaraf qilish hamda yashil energiyadan foydalanishni yanada ko'paytirish lozimligi ta'kidlandi.

Sohalar kesimida tashkil qilingan ishchi guruhlarga ko'rsatmalar berilib ishlarni tizimli va o'z vaqtida amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

2024-07-31 15:13:05